MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING “PADARKUSH” DRAMASIDA NAFS TARBIYASI (FAZILATMI YO ILLATMI) MASALASI

Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich
University of Business and Science
Toshkent filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrasi professori
ORCID-0009-0002-6902-3342.
Email: absattorovbaxtiyor8@gmail.com

Annotatsiya: *Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida nafs tarbiyasi asosiy muammolardan biri sifatida yoritiladi. Asarda inson o‘z nafsini boshqara olmasa, halokatga uchrashi ko‘rsatiladi. Bosh qahramon Otabek boylik va lazzatga berilib, otasining nasihatlarini inkor etadi va fojiali oqibatlarga duch keladi. Uning qarama-qarshi timsoli – Obidxon esa sabr-toqatli, dono inson bo‘lib, nafsini yenggan. Yozuvchi nafsning ikki tomonlama ta’sirini ochib berib, uni tarbiyalash fazilatga, boshqara olmaslik esa illatga aylanishini ko‘rsatadi. Asar inson axloqiy kamoloti uchun muhim saboq beradi.*

Kalit so‘zlar: *Nafs, rarbiya, fazilat, illat, fojea, halokat, axloq, shuhratparastlik, diyonat, komillik.*

Kirish.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) o‘zbek jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, o‘z asarlarida va faoliyatida nafs tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. U insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy yetukligi va jamiyatdagi o‘rnini aniqlashda nafs tarbiyasini muhim omil deb bilgan. Behbudiy inson o‘z nafsini jilovlamasa, jamiyatda turli axloqiy muammolar kelib chiqishini tushungan va shu masalaga alohida e’tibor qaratgan.

XX asrning boshlarida jamiyat murakkab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar girdobida edi. Ushbu davrda “sanoatlashuv, shaharlarning kengayishi va modernizatsiya jarayonlari inson hayotiga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, inqiloblar, urushlar va mustamlakachilik tugashi jamiyatdagi keskinlikni yanada oshirdi. Bunday sharoitda inson nafsining o‘zgarishi, uning ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishi va rivojlanishi muhim jarayonlardan biriga aylangan edi”[1:576-577]. XX asr boshlarida inson nafsining holati murakkab va ziddiyatli bo‘lib, an’anaviy qadriyatlar, diniy e’tiqod va axloqiy me’yorlar hanuz kuchli bo‘lsa-da, yangi davrning ilmiy va texnologik yutuqlari, individualizmning kuchayishi ham inson ruhiyatiga jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Ushbu davr adabiyotida insonning ma’naviy va axloqiy inqirozi, uning nafsi bilan kurashi dolzarb masalalardan biri sifatida tasvirlangan. Adabiyot va falsafada nafsni tiyish, uni boshqarish yoki unga berilish muammolari keng yoritildi.

Inson nafsining asosiy namoyon bo‘lish shakllaridan biri moddiy manfaatparastlik va shaxsiy istaklarning ustunlik qilishi edi. Shahar madaniyatining rivojlanishi bilan iste’mol jamiyati shakllanib, inson ehtiyojlari va xohishlari tobora ortib bordi. Shu bilan birga, urushlar va inqiloblar tufayli yuzaga kelgan qashshoqlik, tengsizlik va adolatsizlik inson nafsi bilan bog‘liq yangi muammolarni yuzaga chiqardi. Ba’zi kishilar hayotini

yaxshilashga intilib mehnat qilishni afzal bilgan bo‘lsa, boshqalari shaxsiy manfaat yo‘lida har qanday vositalarni qo‘llashga tayyor edi.

XX asr boshlaridagi jamiyatda nafsning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – hokimiyatga va kuchga intilish edi. Siyosiy jarayonlarda bu ochiq namoyon bo‘lib, ko‘plab davlatlarda avtoritar tuzumlar paydo bo‘lishi, mutlaq hokimiyatga ega shaxslarning yetakchi mavqega chiqishi kuzatildi. Bunday holatlar insonning nafsi ustidan nazoratni yo‘qotishining oqibati sifatida talqin qilinishi mumkin. Falsafiy va diniy ta’limotlarda esa inson o‘z nafsini tiyib, ma’naviy poklikka intilishi lozimligi ta’kidlandi. XX asrning boshlarida jamiyat muhitidagi o‘zgarishlar inson nafsining turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ba’zi kishilar axloqiy qadriyatlarga sodiq qolgan bo‘lsa, boshqalari nafsi tufayli o‘z manfaatini hamma narsadan ustun qo‘ydi. Ushbu davr adabiyoti va falsafasi bu mavzuni chuqur tahlil qilib, insoniyat uchun dolzarb bo‘lgan savollarga javob izlashga harakat qildi.

Ana shunday murakkab jarayonda maydonga chiqqan o‘zining teran fikrlari va qarashlari bilan vaziyarni to‘g‘ri baholagan jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri Behbudiy hisoblanadi. Uning qarashlari “nafaqat islomiy tasavvuf ta’limotlari bilan bog‘liq bo‘lib, balki jadidchilik harakatining ma’rifiy va modernistik tamoyillari bilan ham uyg‘unlashgan. Behbudiyning nafs tarbiyasiga bo‘lgan munosabati, uning bu boradagi fikrlari va bu g‘oyalarning bugungi jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyatga egadir. Nafs tarbiyasini insonning axloqiy yuksalishi va o‘zini tarbiyalash yo‘lidagi asosiy omillardan biri”[2] deb bilgan. U nafsni jilovlashni faqat diniy majburiyat emas, balki ma’naviy yetuklikka erishish vositasi ham deb hisoblagan. U nafsni jilovlash orqali inson o‘zining axloqiy kamolotiga erishishini ta’kidlagan. Uning fikricha, nafsiga ergashgan inson kibr, hasad, g‘azab, dangasalik va manmanlik kabi illatlarga moyil bo‘ladi.

Inson o‘z nafsini nazorat qilishi uchun, avvalo, o‘zini tarbiyalashi, ilm olishga intilishi va foydali ishlar bilan shug‘ullanishi talab etiladigan hosdisa hisoblanadi. Behbudiy o‘zining ilmiy va ma’rifiy faoliyatida bu g‘oyani keng targ‘ib qilgan. Ilmni insonni kamolga yetkazuvchi eng kuchli qurol deb bilgan. U nafsni tarbiyalashning eng muhim yo‘li – bilim olish va o‘z ustida ishlash ekanini ta’kidlagan. Behbudiy fikricha, ilm-ma’rifatdan yiroq jamiyatlarda insonlar o‘z nafsini nazorat qila olmaydi va bu axloqiy tanazzulga olib keladi. Jaholat insonni moddiy manfaatga, manmanlik va kibr qilishga undaydigan insondagi salbiy illatdir. Ilm insonni komillikka yetaklaydi va uni nafsga bo‘ysunmaslikka o‘rgatadi. Behbudiy yangi usul maktablarini ochish orqali yoshlarni ilm bilan qurollantirish va shu yo‘l bilan ularning nafsini tarbiyalashga harakat qilgan.

Behbudiy dangasalikni nafsning eng yomon ko‘rinishlaridan biri deb hisoblagan. Inson mehnat qilmasa, nafsining quliga aylanib qoladi. Inson halol mehnat qilish orqali o‘z nafsini poklaydi, ruhan tozalaydi va jamiyatga foydali bo‘ladi deb hisoblagan. Dangasalik insonni bilimsizlik, johillik va axloqsizlik tomon yetaklaydi. Behbudiyning o‘z maqolalarida va asarlarida dangasalikni keskin qoralagan va yoshlarni harakat qilishga undagan. Insonning dunyoviy ne’matlarga bo‘lgan haddan tashqari qiziqishini nafsning eng katta fitnalaridan biri deb bilgan. Jamiyatda boylikka haddan tashqari ruju qo‘yish insoniy qadriyatlarga putur yetkazadi. Uning fikricha, inson faqat moddiy manfaatni ko‘zlab harakat qilsa, axloqiy qadriyatlarini yo‘qotadi.

Behbudiy boylikni yomon deb hisoblamagan, lekin uni halol yo‘l bilan topish va jamiyat ravnaqi uchun ishlatish tarafdori bo‘lgan. Halol yo‘l bilan topilgan mol-dunyo nafsni jilovlashga yordam beradi. Nafs tarbiyasining asosiy o‘chog‘i oila hisoblab, insonning axloqiy tarbiyasi oilada shakllanadi va bu kelajak avlodning komilligi uchun muhim omil hisoblanadi. Agar ota-ona farzandiga nafsni jilovlashni, odob-axloq qoidalariga rioya qilishni o‘rgatsa, bu jamiyatda yaxshi natija beradi. Behbudiy oilaviy tarbiya orqali inson o‘z nafsini jilovlashni, halol yashashni va mehnatsevar bo‘lishni o‘rganishini ta’kidlagan. Behbudiy nafs tarbiyasini nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy taraqqiyotning ham asosiy omillaridan biri deb hisoblagan. U jamiyatning yuksalishi va taraqqiy etishi uchun har bir inson o‘z nafsini jilovlashi shartligini ta’kidlagan. Agar jamiyat a’zolari o‘z nafsini jilovlasa, jamiyatda adolat, halollik va insoniylik tamoyillari ustuvor bo‘ladi.

Behbudiy axloqiy barkamollikka erishish uchun har bir inson o‘z ustida ishlashi va nafsini tarbiyalashi kerakligini ta’kidlagan. Nafs tarbiyasiga katta e’tibor qaratgan Behbudiy, bu borada jamiyatning har bir a’zosini mas’ul deb bilgan. Ilm olish, mehnatsevarlik, halollik va axloqiy qadriyatlarga rioya qilish orqali inson o‘z nafsini jilovlashi mumkin deb hisoblagan. Uning nafs tarbiyasi haqidagi qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, inson ma’naviy yetukligiga erishish yo‘lida muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Behbudiyning bu boradagi fikrlari yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatni isloh qilish va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Uning ijodida nafs tarbiyasi muammosini keng yoritgan va bu borada ko‘plab asarlar yaratgan. Uning “Padarkush” dramasi jadid adabiyotining ilk sahna asari bo‘lib, jamiyatdagi illatlar, insoniy fazilatlar va nafs tarbiyasi mavzulariga bag‘ishlangan. Ushbu dramada nafsning hukmronligi qanday yomon oqibatlarga olib kelishi va uni jilovlash yo‘llari ko‘rsatilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi 1911-yilda yozilgan bo‘lib, oradan ikki yil o‘tgach, ya’ni 1913-yilda kitob holida nashr qilinadi. “Padarkush” asarida nafs masalasining yoritilishi, nafs tarbiyasining dolzarbligi va bu masalaning davr muhitidan kelib chiqqan taqozolari tahlil qilinadi. “Padarkush” dramasi yosh yigit Toshmurodning halokatli taqdiri haqida bo‘lib, unda inson nafsining qanchalik katta fojialarga sabab bo‘lishi ko‘rsatiladi. Asarda nafs masalasi quyidagi jihatlar orqali ochib berilgan:

“Asar qahramoni Toshmurod boy oilaning farzandi bo‘lib, mol-dunyo ortidan quvgan, aysh-ishratga ruju qo‘ygan, nafsining quliga aylanib qolgan obraz sifatida gavdalanadi. U o‘z nafsini jilovlay olmay, yolg‘on do‘stlarning ta’siriga tushadi va oxir-oqibat o‘z otasini o‘ldirishgacha boradi. Toshmurodning nafsiga qul bo‘lib, ota-ona nasihatlariga quloq solmasligi uning halokatiga sabab bo‘ladi”[3:134]. U moddiy ne’matlarga berilib ketib, o‘z tafakkurini mustaqil rivojlantirishga harakat qilmaydi. Uning nafsining kuchayishi, boylik va aysh-ishratga qiziqishi halokatli oqibatlarga olib keladi.

Asarda Toshmurodning nafs yo‘lida qilgan xatolari orqali jamiyatdagi tarbiyasizlik muammosi ko‘rsatib beriladi. Jadidlar nazdida boylik maqsad emas, balki inson kamoloti uchun vosita bo‘lishi kerak edi. Biroq Toshmurod boylik ortidan quvish, qulay hayot

kechirish istagida o‘z vijdonini va insoniylik tuyg‘ularini yo‘qotadi. Uning nafsiy illatlarga berilishi zamonaviy muhit va tarbiya yetishmovchiligining oqibati sifatida ko‘rsatilgan. Bu bilan Behbudiy yoshlarni ogohlantirishni, nafsni tarbiyalash muhimligini targ‘ib qilishni maqsad qilgan.

Dramada nafs tarbiyasi masalasi ota-ona, ilm-ma’rifat va mehnat orqali hal qilinishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Behbudiy bu “g‘oyalarni ilgari surarkan, quyidagi usullarni taklif qiladi: Asarda ota-ona tarbiyasining muhimligi ochiq namoyon bo‘ladi. Toshmurodning otasi uni to‘g‘ri yo‘lga solishga harakat qiladi, ammo yigit nafsiga qul bo‘lib, otaning nasihatlarini tinglamaydi. Behbudiy ota-onalarga farzand tarbiyasida e’tiborli bo‘lish, ularni nafsiy illatlardan saqlash zarurligini uqtiradi”[4:186]. Agar farzand yoshlikdan nafsini tarbiyalashni o‘rganmasa, u keyinchalik jamiyatga zarar keltiruvchi shaxsga aylanishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Jadidlar fikricha, ilm-ma’rifat insonni jaholat va nafs botqog‘idan chiqaruvchi eng muhim vositalardan biridir. “Padarkush” dramasi orqali Behbudiy o‘z davridagi yoshlarni ilm o‘rganishga, tafakkur qilishga va nafsiy istaklarga berilmaslikka chaqiradi. Toshmurod ma’rifatsizlik va nodonlik tufayli nafsining qaramog‘iga tushib qoladi. Agar u ilmli bo‘lganida, nafsini nazorat qila olgan bo‘lar edi.

Behbudiy insonning dangasalik va yengil hayotga o‘ch bo‘lishi nafsning kuchayishiga olib kelishini ta’kidlagan. Toshmurod kabi boy oilalar farzandlari mehnat qilishni o‘rganmasa, nafsga bo‘ysunib, yomon yo‘llarga kirib ketishi mumkin. Mehnat insonning nafsini jilovlashga, irodasini mustahkamlashga yordam beradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasini yozar ekan, o‘z davrining muhitini hisobga olgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida ma’naviy tanazzul va jaholat kuchaygan edi. Bu holat yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Jadidlar yoshlarga yangicha ta’lim-tarbiya berish orqali ularni nafs botqog‘idan chiqarishni maqsad qilgan. “Padarkush” dramasi shu maqsadda yozilgan va o‘quvchilarni o‘ylashga, xulosa chiqarishga undagan. Asardagi nafsning illatlar va ularning oldini olish haqidagi g‘oyalar yangi jamiyat qurish uchun zarur bo‘lgan axloqiy tamoyillarni belgilab bergan. Behbudiy yosh avlodning yangi fikrlash tarzi bilan shakllanishi tarafdori edi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi nafs tarbiyasi, uning yomon oqibatlari va uni jilovlash yo‘llari haqida teran fikrlarni ilgari surgan asardir. Toshmurod obrazi orqali muallif nafsga qul bo‘lish qanday halokatga olib borishini ko‘rsatgan. Behbudiy yoshlarni ilm olishga, mehnatsevar bo‘lishga, ota-onaga quloq solishga va nafsini tarbiyalashga chaqirgan.

Uning bu asari faqat XIX–XX asr muammolari uchun emas, balki bugungi kun jamiyati uchun ham dolzarbdir. Yosh avlod axloqiy qadriyatlarni e’zozlab, ilm-ma’rifat orqali o‘z nafsini tarbiyalashga harakat qilishi lozim. Behbudiy targ‘ib qilgan tamoyillar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida insoniy fazilat va illatlar muammosi keskin yoritilgan. Asarning markazida nafsga berilish va uning oqibatlari tahlil qilinadi. Dramada nafs tarbiyasi muhim masala sifatida ko‘tarilib, insonning hayotiga qanday ta’sir etishi ko‘rsatiladi. Shunday ekan, nafs tarbiyasi – fazilatmi yoki illatmi, degan savolga Behbudiyning asari orqali javob izlash mumkin.

Dramaning bosh qahramoni Toshmurod o‘z nafsini tiyib, aql bilan ish tutganida, fojeaviy oqibatlar yuz bermasligi mumkin edi. Biroq u mol-dunyo va lazzat girdobiga tushib, ota-onasining pand-nasihatlarini inkor etadi. Toshmurodning shuhratparastligi, beqarorligi va ochko‘zligi uni xatolarga boshlaydi. Behbudiyning tasvirlashicha, nafsni tarbiyalay olmagan inson uchun u illatga aylanadi va oxir-oqibat halokatga yetaklaydi. Toshmurodning nafs istaklariga kirib qilgan xatolari uni fojeaga olib keladi: u otasini o‘ldiradi va o‘z hayotini barbod qiladi. Bu esa nafsni boshqara olmaslikning achchiq oqibatidir.

Behbudiyning asari nafsni tarbiyalash muhimligini ko‘rsatib beradi. Nafs – insonni pastkashlikka ham, ulug‘vorlikka ham yetaklashi mumkin bo‘lgan kuch. Agar u ijobiy yo‘nalishda tarbiyalansa, insonning kamolotiga xizmat qiladi. Aks holda, inson o‘zini halokatga duchor qiladi. “Padarkush” dramasi orqali yozuvchi inson nafsini tiyish va uni to‘g‘ri boshqarish hayot uchun hal qiluvchi omil ekanini uqtiradi. Shu sababli, nafs tarbiyasini fazilat yoki illat deb keskin ajratib bo‘lmaydi. Uning qaysi tomonga og‘ishi esa insonning o‘ziga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций (Philosophy). Пер. с англ. – М.: АСТ, 2011. –С. 576-577.

2. Ashurova X.S. Jadidchilik g‘oyalarining vujudga kelish tarixiga oid falsafiy qarashlar. SamDU. Ilmiy axborotnoma. 2020. № 6.

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent,: “Ma’naviyat”, 1999. – B.134.

4. Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – T.: “Yoshlar nashriyot uyi” 2022. – B.186.